



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 164-169 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

GIDROENERGETIKA KORXONALARI RESURSLARINI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBALARI



Parpibayev Dilmurod Odil O'g'li,
Xalqaro Nordik Universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dimoriev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat tarmog'ining muhim qismi hisoblangan gidroenergetika tarmog'i xorij tajribalari va hozirda jahonda gidroenergetika tarmog'ining xolati, sohada ishlab chiqarish jarayonini etakchi davlatlari tendensiyalari va ulardagi energiya balansida gidroenergetika resurslarining ulushi batafsil yoritib berilgan. Mamlakat iqtisodiyotida gidroenergetika tarmog'ining roli, iqtisodiy salohiyati va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish jarayoni tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, energetika tarmog'i, sanoat gidroenergetika, muqobil energiya, iqtisodiy o'sish.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ РЕСУРСАМИ ГИДРОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Аннотация. В данной статье подробно описан зарубежный опыт гидроэнергетической сети, которая считается важной частью промышленной сети, а также современное состояние гидроэнергетической сети в мире, тенденции ведущих стран в производственном процессе в этой области, и долю гидроэнергетических ресурсов в их энергетическом балансе. Проведен анализ роли гидроэнергетической сети в экономике страны, экономического потенциала и процесса повышения эффективности использования ресурсов.

Ключевые слова: промышленность, энергетика, промышленная гидроэнергетика, альтернативная энергетика, экономический рост.

FOREIGN EXPERIENCES IN RESOURCE MANAGEMENT OF HYDROENERGY ENTERPRISES

Annotation. This article describes in detail the foreign experiences of the hydropower network, which is considered an important part of the industrial network, and the current state of the hydropower network in the world, the trends of the leading countries in the production process in the field, and the share of hydropower resources in their energy balance. The analysis of the role of the hydropower network in the economy

of the country, the economic potential and the process of increasing the efficiency of resource use has been carried out.

Key words: industry, energy industry, industrial hydropower, alternative energy, economic growth.

Kirish

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida energiya resurslaridan samarali foydalanish, energiyaning istiqbolli turlarini ishlab chiqarishga ustuvor ahamiyat berish, elektr energetikasi korxonalarini zamonaviy asosda modernizatsiya qilish, elektr energetikasi korxonalarini tabiiy va moliyaviy resurslarini samarali boshqarishni, elektr energiyasini uzluksiz ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Eng muhim masala – energiya resurslaridan samarali foydalanish. Afsuski, iqtisodiyotimizda energiya iste'moli boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda ikki baravar ko'p. Shuning uchun biz energiya samaradorligi milliy dasturini qabul qilmoqdamiz. Biz energetika sohasida erkin bozorga o'tishimiz kerak. Agar biz erkin bozorga kirmasak, investorlar bizga kelmaydi »¹.

Shu shu sababli sohada moliyalashtirish manbalari hisobidan innovatsion va investitsiya faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, arzon energiya manbalarini rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ustuvor rivojlantirish, yashil energiya loyihalariga investitsiyalarni rag'batlantirish, resurslarni boshqarishni samarali tashkil etish va shu kabi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yashil energetika sohasidagi rivojlangan mamlakatlar tajribasini urganish muhimdir.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida, jumladan Rossiya, Xitoy, Xindiston, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Niderlandiya, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda iqtisodiyot sohalarini suvga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. "Dunyoda 4 milliard 886,3 million gektar maydonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiriladi, shundan ekinlarni sug'orish uchun erlarning 43,2 foizi gidro stansiyalari tizimiga to'g'ri keladi". Shunday ekan, xalq xo'jaligining suvga o'sib borayotgan talabini me'yorida ta'minlash, suvdan tejamkor foydalanishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Energetika sohasi korxonalarini moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligi masalalariga T.Tietenberg, R.M.Solou, R.Kostanza, R.Terner, J.Smit, Y.Shumpeter, S.Verner, E.Lauf va boshqa ko'plab xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ushbu muammoning turli jihatlarini o'rgangan mahalliy iqtisodchi olimlardan K.R.Allayev, M.A.Maxkamova, G.J.Allayeva, G.Sh.Xonkeldiyeva, M.S.Saidov, D.U.Mirzarayimov, Sh.E.Zokirov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada mavzu buyicha turli horijiy adabiyotlar o'rganilgan. Amaliy tahlillarda rasmiy statistik ma'lumotlar hamda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida elektr energiyasini yanada rivojlantirish va islo qilish strategiyasi tugrisida" 27.03.2019 yildagi PQ-4249-son Qarori. www.lex.uz.

mantiqiy fikrlash statistik jadval va grafik, solishtirma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Bozor munosabatlari sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish, ulardan foydalanishni samarali tashkil etish muhim hisoblanadi, bu esa xo'jalik yurtish jaraenida noqulay vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi, shuningdek, foydalanilmagan imkoniyatlar sonini minimallashtirishga olib keladi.

Moliyaviy resurslarning dastlabki shakllanishi xo'jalik yurituvchi sub'ektni tashkil etilayotgan vaqtda, ustav fondi shakllanaetganda paydo bo'ladi. Uning manbalari: jismoniy shaxslarning badallari, tarmoq moliyaviy resurslari (tarmoq tuzilmalari saqlanib qolganda), uzoq muddatli kreditlar, byudjet mablag'lari. Demak, ustav kapitali– bu korxonaning ta'sis hujjatlarida qayd etilgan aktivlarning umumiy qiymatidir. Uning mablag'lari hisobidan korxonalarining asosiy fondlari va aylanma aktivlari shakllantiriladi. Korxonaning faoliyati davomida ushbu resurslardan samarali foydalanishi, o'zini va o'zi faoliyat yuritayotgan sohani rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda gidroenergetika sohasini jadal rivojlanishi ushbu korxonalarining resurslaridan samarali foydalanish va ularni boshqarish jarayonini takomillashtirishni talab etadi. Gidroenergetika energiya almashinuvining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ayni paytda toza va nisbatan arzon energiyadan foydalanishni ta'minlaydi. Mamlakat iqtisodiyoti o'sishi bilan bu jarayon yanada tezrok jadallashadi.

So'nggi 15-20 yil ichida elektr energiyasiga bo'lgan talabning o'sishi, iqtisodiyotda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy tarmoqlarda arzon va tejamkor resurslardan foydalanish, elektr energiyasida gidroenergetikani ulushini oshirish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda ham sohani rivojlantirish uchun bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu albatta sohadagi horij tajribalarini o'rganishni talab etadi.

GESlarning ishga tushirilishi, katta hajmdagi foydalanilmayotgan gidropotensial va yuqori darajadagi gidroelektrostantsiyalar asosan Xitoy va boshqa Osiyo-Tinch okeanidagi rivojlanayotgan mamlakatlarda jamlangan.

Rivojlangan mamlakatlarda sanoatning rivojlanganligi, gidropotensialning yuqori darajada ekanligi, elektr energiyasiga bo'lgan talabning tez o'sish sur'atlari, qayta tiklanadigan energiyaning muqobil manbalarini (quyosh va shamol energiyasi) ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishini talab etiladi.

2010–2020 o'n yilliklar jahon gidroenergetika sanoati uchun tarixdagi eng muvaffaqiyatli bo'ldi. Ishlab chiqarish hajmi oshdi, sanoatda elektr energiyasi ishlab chiqarishning global o'sishining qariyb 15 foizini ta'minladi. O'sish asosan yangi quvvatlarni ishga tushirish orqali Xitoy va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keldi. Natijada, o'rnatilgan quvvat gidroenergetika (17%) va elektr energiyasi ishlab chiqarish (15%) bo'yicha dunyodagi eng yirik kam uglerodli qayta tiklanadigan elektr energiyasi manbai bo'lib, atom energetikasi va boshqa barcha qayta tiklanadigan energiya manbalarini ortda qoldirdi.


Dunyoda elektr energiyasini ishlab chiqarish o'sib bormoqda, so'nggi 10 yil ichida GESlarning quvvati 33% ga o'sdi. Gidroenergetikani rivojlantirishda asosiy o'rinda Xitoy (jahon quvvati o'sishining yarmidan ko'pi), keyingi o'rinlarda Braziliya, Turkiya, Vetnam

va Hindiston turadi.

Dunyoda elektr energiyasiga bo'lgan talab doimiy ravishda o'sib borishi, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishni talab qiladi. 2010 yildan 2021 yilgacha global elektr quvvatining umumiy o'sishi 58% dan ortiqni (+2933 GVt) tashkil etdi, bu asosan issiqlik energiyasi, quyosh elektr stansiyalari va shamol elektr stansiyalari tomonidan qoplandi.

Dunyodagi gidroenergetikaning yarmidan ko'pi beshta davlatda - Xitoy, Braziliya, Kanada, AQSh va Rossiyada to'plangan.

2010-2021 yillar uchun Yangi gidroenergetika quvvatlarini ishga tushirish bo'yicha Xitoy 175 GVt yoki jahon umumiy hajmining qariyb 50% ko'rsatkichi bilan keng farq bilan yetakchi bo'ldi. Xitoyning yetakchiligi, jumladan, quvvat jihatidan eng yirik loyihalarni amalga oshirish bilan ta'minlandi. Quvvatlarni ishga tushirish bo'yicha yetakchilar qatoriga Braziliya (o'rnatilgan quvvatlarning mutlaq hajmi bo'yicha dunyoda 2-o'rin), Turkiya, Vetnam, Hindiston va Kanada kiradi. 9-o'rinni ishga tushirish hajmi 4 GVt bo'lgan Rossiya egalladi (1-rasm).



1-rasm. 2010–2021 yillarda gidroenergetika quvvatlarini oshirish bo'yicha yetakchi 10 ta davlat, GVt²

Qayta tiklanadigan energiya manbalarining turlari orasida gidroenergetika gidroelektrostansiyalarning suv omborlari tufayli ishlab chiqarishni ta'minlashni eng arzon va xavfsiz energiya manbalaridan biri hisoblanadi.


Jahon energetika balansida rivojlanayotgan mamlakatlarda gidroelektr stansiyalari energiya ta'minotining asosiy manbaiga aylanib bormoqda. Oxirgi 10 yil ichida o'rnatilgan quvvatlarning o'sishiga qaramay, gidroenergetikaning global energiya balansidagi roli bosqichma-bosqich pasayib bormoqda. 2010-2021 yillarda boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol) quvvatlarining faol o'sishi fonida jahonda gidroenergetika quvvatlarining umumiy ulushi bosqichma-bosqich 19,3 foizdan 16,0 foizga kamaydi. Shu bilan birga, ushbu davrda ko'mir ishlab chiqarish va AES ulushi yanada yuqori sur'atlarda - mos ravishda 33,5 foizdan 27 foizga va 8 foizdan 5,2 foizga kamaydi.

Bir qator davlatlar (Xitoy, Turkiya, Hindiston, Nepal, Indoneziya, Braziliya va

² O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

boshqalar) allaqachon gidroenergetika orqali qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini oshirish rejalarini ishlab chiqishgan. GESlar yaqin atrofdagi hududlarda nafaqat maishiy energiya iste'molini ta'minlashi, balki sanoat korxonalarini uchun arzon energiya manbaidir.

Eng qulay va ishonchli energiya manbai bo'lgan yirik gidroenergetika salohiyatining mavjudligi bilan ajralib turadigan nisbatan kichik mamlakatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida gidroelektrostantsiyalarning energiya balansidagi ulushi yuqori (70% dan ortiq). Ayrim mamlakatlarda esa GESlar elektr energiyasi ishlab chiqarishning 90% va undan ortiq qismini ta'minlaydi, bu esa ichki iste'mol uchun ishlatiladi va shu bilan birga eksportdagi daromadning muhim manbaidir. Bularga Markaziy Osiyo (Tojikiston), Afrika (DRK, Gvineya, Efiopiya va boshqalar), Osiyo (Nepal, Laos va boshqalar) davlatlari kiradi (2-rasm).



2-rasm. Umumiy elektr quvvatining 70% dan ortig'i gidroenergetikaga bo'lgan mamlakatlar, 2021-yil³

Rivojlangan mamlakatlar orasida Norvegiya va Yangi Zelandiya energiya balansida gidroelektrostantsiyalarning eng katta ulushi bilan ajralib turadi.

Gidroenergetikani rivojlantirishning asosiy afzalliklari ishlab chiqarish ob'ektlarining moslashuvchanligi va tartibga solish imkoniyatlari, iqtisodiy rivojlanish va energiya manbalarining diversifikatsiyasini ta'minlash uchun murakkab ijtimoiy-iqtisodiy samaralardir. Shuningdek, gidroenergetikaning past uglerodliligi ham muhim omil bo'lib, u qazib olinadigan yoqilg'iga asoslangan ishlab chiqarishga nisbatan issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin va iqlim siyosatini kuchaytirishga qaratilgan global tendentsiyaga mos keladi.

Xulosa va takliflar

Umuman olganda, bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida barcha sohalarning

³ O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlantmasi

jadal rivojlanishi, raqobatning ustunligi, mahsulot tannarxini oshib ketmasligi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni arzon, uzluksiz energiya bilan ta'minlash va ulardan samarali foydalanish dolzarbligicha qolmoqda. Bunda energetika korxonalarini faoliyatini doimiy tahlil qilinishi talab qilinadi.

Energetika korxonalarini faoliyatini tahlil qilishning samarali vositasi sifatida chet elda benchmarking keng qo'llaniladi. Ushbu tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Energiya benchmarkingini o'tkazish, korxonaning investitsion, moliyaviy va texnik-iqtisodiy faoliyatiga tegishli barcha zarur ko'rsatkichlar ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

2. Energiyani taqqoslash uchun muddatni aniqlash va fokus-guruhni yaratish.

3. Barcha zarur ochiq (yillik hisobotlar, tahliliy agentliklarning ma'lumotlari va boshqalar) va yopiq axborot manbalarini aniqlash va tahlil qilish.

4. Korxonalar va ularning raqobatchilarining o'tgan, joriy, kelgusi davrdagi ko'rsatkichlarini bilan taqqoslash. Energetika sanoatida har bir korxonani biznes yuritishi, asbob-uskunalar mavjudligi va geografik joylashuvi asosida o'ziga xos sub'ekt deb hisoblash mumkin. Ishni me'yorlashtirish deganda korxonalar nazorati ostida bo'lmagan omillar dinamikasini hisoblash tushuniladi. Bunday omillarga aholi zichligi, tarmoqdagi farqlar va boshqalar kiradi.

5. Eng samarali moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlanadi.

6. Korxonalar faoliyatining barcha moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarini (ta'mirlash va ta'mirlash ishlarining xarajatlari, texnik holat, baxtsiz hodisalar yoki baxtsiz hodisalar mavjudligi va boshqalar) tahlilini o'tkazish. Raqobatchi korxonalar bilan solishtirish va bu orqali moliyaviy ko'rsatkichlarning pasayishi sabablarini aniqlash.

Ishonchlilik va samaradorlikni ta'minlash bo'yicha korxonalar strategiyasini yaratish, unda barcha zarur chora-tadbirlarning batafsil tavsifi bilan investitsiya faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari mavjud. Natijalarni yaxshilash yoki ushbu jarayonlarning samaradorligini oshirish uchun barcha korxonalar tashabbuslari hisobga olinadi.

Bu muammolarni hal etish energetika sanoati korxonalarining moliyaviy faoliyatini sohaning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali boshqarishni imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " O'zbekiston Respublikasida elektr energiyasini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida" 27.03.2019 yildagi PQ-4249-son Qarori. www.lex.uz.
2. Гидроэнергетика Россия и зарубежных стран. Ассоциация "Гидроэнергетика России" 12.2022.
3. <https://www.irena.org>
4. <https://www.eprussia.ru>
5. <https://www.hydropower.ru>
6. <https://uz.sputniknews.ru>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

